# Harakatlar ketma-ketligi

**1.** Harakatlarni bajaring. Qogʻozni buklab, samolyotcha yasang:

1) varaq uchlarini varaq markazi tomon buklang;
2) bukilgan tomonini ichiga qayiring;
3) yuqori burchaklarini yana ichkari tomon buklang;
4) burchakni tashqariga qayirib buklang;
5) varaqni oʻrtada koʻrsatilgan chiziqlar boʻylab buklang;
6) samolyotning har bir qanotini teng qilib buklang.



**2.** Quyidagi rasmlarga qarang. Tuxum qovurish uchun qanday ishlarni bajarish kerak?



**3.** Choy damlash uchun bajariladigan ishlar ketma-ketligini to‘g‘ri tartibda belgilang.



- ☐ Choynakni issiq suvda chaying.
- ☐ Chovgumda suv qaynating.
- ☐ Choynakka 2 choy qoshiq quruq choy soling.
- ☐ 5–7 minut tindirib qo‘ying.
- ☐ Choynakka qaynagan suv quying.

**4.** Harflar o‘rnini almashtirib, so‘zni toping. Ushbu predmetni rasmdan ko‘rsating.

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| N | O | Y | CH | A | K |

